



Iroda SIDDIKOVA,
O'zMU professori, filologiya fanlari doktori
E-mail: ravsidd@mail.ru

THE PROBLEM OF RELATION OF TERMS AND LEXICO-SEMANTIC FIELD IN LINGUISTICS

Annotation

The article discusses the main issues of the theory of the term, the semantic field, as well as the relationship between these phenomena. The works of scientists on this problem have been studied. The analysis is carried out using medical terms as an example.

Key words: term, field theory, lexical-semantic field, medical terms, component analysis, dental terms.

ПРОБЛЕМА ОТНОШЕНИЯ ТЕРМИНА И ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОГО ПОЛЯ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются основные вопросы теории термина, семантического поля, а также отношения между этими явлениями. Изучены научные работы ученых по данной проблеме. Анализ проводится на примере медицинских терминов.

Ключевые слова: термин, теория поля, лексико-семантическое поле, медицинские термины, компонентный анализ, стоматологические термины.

TILSHUNOSLIKDA TERMIN VA LEKSIK-SEMANTIK MAYDON MUNOSABATI MUAMMOSI

Annotatsiya

Maqolada termin nazariyasining va semantik maydon asosiy masalalari, shuningdek, ushbu hodisalar o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilindi. Bu muammo bo'yicha olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Tahlil misol sifatida tibbiy termin yordamida amalga oshirildi.

Kalit so'zlar: termin, maydon nazariyasi, leksik-semantik maydon, tibbiy terminlar, komponent tahlili, stomatologiya terminlari.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda xalqaro aloqa tillarini, unda yuz beradigan zamonaviy jarayonlar va hodisalarni o'zlashtirish ayni paytda kelajak mutaxassisining shaxsini shakllantirishning samarali usuli hisoblanadi. Jamiyatning zamonaviy talablari nuqtai nazaridan chet el tillarini madaniyatlararo aloqa vositasi sifatida bilish mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotining har qanday sohalarida kasbiy faoliyatning zaruriy sharti sifatida qaralishi kerak. Ilm fanning ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat bilan hamohang shakllanishi va rivojlanishi, ilmiy sohadagi aloqalar sharoitlari, shubhasiz, taraqqiy etgan jamiyatda inson faoliyatining barqaror va o'ta muhim yo'nalishini tashkil etadi.

Asrlar davomida ilm-fan aniqlik, ixchamlik, lakonik va ifodalilik xususiyatlarini ifoda etgan o'z tilini (terminologiyasi) rivojlantirishga muvaffaq bo'ldi. Ilmiy matnda qo'llaniladigan har bir so'z, ibora mutaxassisga tushuncha yoki hodisaning hayratlanarli darajada ko'p qirrali va ixcham tavsifini beradi. Samarali maxsus muloqotning chet tili vositasida terminologik lug'atni o'zlashtirmasdan o'rnatishning mutlaqo imkoni yo'q bo'lgani kabi, terminologiya sohasining kommunikativ vazifalari ma'lum bir jamiyat doirasida lingvistik faoliyatni ta'minlash bilan chegaralanmaydi. Binobarin, har qanday zamonaviy sohaning nafaqat ichki, balki tashqi xalqaro aloqalar bilan bog'liq bo'lgan terminologiyasi kundan kunga o'sib borayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Shuningdek, terminologiya sohasi taraqqiy etgan tillar maxsus so'z boyligiga muvofiq bo'lgan leksikaning muloqotda qo'llanilishini majmuaviy o'rganish hozirgi kunda muhim sanaladi. Binobarin, sohaning rivojlanishi uning terminologik tarkibini mukammallashishiga va o'z navbatida ilmiy yo'nalish evolyutsiyasi bilan hamohang takomillashadi. Bundan tashqari, ilmiy fan maxsus terminlar majmui va ular

xususidagi soha bilan bog'lab o'rganilgan. Bugungi kunda terminologiyani o'rganishning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri nutqiy faoliyatda terminlardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq diskursiv aspekt bo'lib, u maxsus terminologiyani o'rganilishiga ilmiy asos bo'ladi, ya'ni, muloqot jarayonida terminlarning kommunikativ voqelanish prinsipiga muvofiq oliy ta'limda o'rgatilishidir. Ta'kidlash joizki, ko'plab ilmiy yo'nalishlarning faol rivojlanishi tufayli, tilshunoslikda yangi tushunchalarni shakllantirish va o'zlashtirish borasida ilmiy terminologiya sohasi alohida ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Terminologiya ilm-fan va texnologiyani har bir yo'nalishida o'zining sanoqli va ma'lum chegaralarga ega tizimini ifodalaydi. Ushbu tizimlarga termin tarkibini yoki unga xos bo'lgan boshqa qismlarni o'zgartirmasdan qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish mumkin emas. Terminlardagi bu kabi xususiyatlar nazariy terminologiya sohasida chuqur o'rganilib, dalillangan. Termin maydoni – belgilangan fan va texnikaga oid terminlar tizimidir. Ma'lumki, tilshunoslik sohalarining tamoyillarini belgilab, aniqlashga yordam beradigan birliklari mavjud bo'lgani kabi, terminologiya sohasining birligi termin orqali belgilanadi. S.D.Shelovning terminga bergan ta'riflarini keltirib o'tamiz: a) anglatilgan tushuncha sharti aniqlik, boshqalaridan farq qilishi yetarli va muhim hisoblanmaydi, chunki o'zi keng qo'llaniladigan sohada vazifasiga (ilmiy, texnik, ish hujjatlarini yuritish bilan shug'ullanadigan jabha) muvofiq bo'lgan noaniq va o'ziga xos boshqa bir izohga ko'ra muhim va to'liq bo'lmagan (masalan, tilshunoslikda *neologizm, istorizm, arxaizm* yoki tarixiy *natsiya, etnos, obshchestvo, klass*), termin mavjud bo'lishi mumkin yoki aksincha, tilda aniq va farqli ma'noga ega bo'lgan so'z (mn.: *mart, tushlik*) termin bo'lmashligi mumkin. b) mavjud bo'lgan tilga oid belgiga berilgan izoh sharti tushunchaning o'zi yetarli bo'lgani bilan muhim sanalmasligi mumkin (genetika

terminlari singari *xromosomalarni ajratuvchi mexanizm, somatik hujayralarning bo'linish fazasi...* – hech qanday izohga ega bo'lmasa ham termin sifatida qo'llanishda davom etadi); v) umuman olganda, terminning tizimlilik shartiga asosan muhim sanalmaydi. Termin mazmuni doim til me'yorlariga muvofiq hisoblanib, terminologik birlik sifatida ham qo'llaniladi...[1]. Hozirgi kunga kelib, terminologiya sohasiga oid masalalar ancha rivojlangan bo'lib, tushuncha va uning turlari, o'ziga xos xususiyatlari va usullari kabi tushunchalarni qamrab olgan.

Tibbiyotga oid terminlar turli ilmiy sohalarida o'z ifodasini topganligi bois, zamonaviy tibbiyot shiddat bilan rivojlanayotgan sohalar majmuasi qatoridan joy olgan. Ingliz, rus va o'zbek tillari adabiy tilining alohida tarmoqlaridan biri hisoblansada, tibbiyot terminologiyasida mavjud leksemalar vazifaviy uslublarni ifoda etadi. Birinchidan, u boshqa sohaga oid terminologiya tilidan leksik vositalaridan zarur bo'lgan birliklarga tanlangan ifoda tarkibida o'z aksini topgan mazmun ifodasi jihatidan tubdan farq qiladi. Zamonaviy tibbiyot terminologiyasi juda katta lug'at qatlamini qamrab oladi. Dunyoda mavjud bo'lgan tillarning har birida yuz mingdan ortiq terminlar faol qo'llanilib kelmoqda. Shuningdek, tibbiyot bilan bog'liq ko'plab "yondosh" sohalar ham mavjud bo'lib, har yili tibbiyot terminologiyasi yuzlab yangi tushunchalar bilan boyib boradi. Ingliz tilining katta sig'imga ega bo'lgan Oksford lug'ati tarkibiga kirgan 600 mingga yaqin so'zning deyarli yarmini terminlar tashkil etadi. Yana shunita'kidlash kerakki, terminlarning rang-baranglik kategoriyasi, jumladan, jarayon, belgi, hodisa, miqdor, xususiyat, munosabat kabilarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot terminologiyasi ko'plab tilshunoslar tomonidan tadqiq qilinib, uningturli aspektlari o'rganilgan. Tilshunoslar tibbiyotga oid terminologiyaning semantik xususiyatlarini, shakllanish tarixini, taraqqiy etishidagi asosiy omillarini tadqiq etishgan. Tibbiyot terminologiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarni tizimlashtirib tahlil qilganda, unda barcha tadqiqotlarni bir nechta shartli guruhlar shaklida taqdim etish mumkin: 1) tibbiyotga oid terminologiyaning shakllanishi va taraqqiy etishi bilan bog'liq masalalar L.V. Dubrovina, L.S. Rudinskaya, M.V. Novoselova kabi tilshunoslarning tadqiqotlarida o'rganilgan; 2) tibbiyot terminologiyasida epinomiya hodisasining ifodalanishini N.V. Novinskaya va Ye.V. Varnavskayalar tadqiq etishgan; 3) tibbiyot sohasidagi toponimik termin-tizimlari A.I. Moiseyev tomonidan ko'rib chiqilgan; 4) tibbiyot terminlarining qisqartmalari L.P. Muraseyev, Ye.D. Malenova, L.Yu. Zubovalarning ishlarida tadqiq qilingan; 5) tibbiyotga oid terminologiyada metaforik xususiyatlarni ifodalovchi terminlar bilan bog'liq muammolarni L.M. Alekseyeva, S.L. Mishlanova, S.V. Lebedeva, M.V. Ozinginlar tahlil qilishgan; 6) tibbiyot fanining alohida sohalariga oid terminologiya, jumladan, genetika – M.V. Oganessian; onkologiya – L.N. Gushina; ortodontiya – L.M.-R. Allafi; oftalmologiya – S.V. Shvetsova; yuz-jag'-miya jarrohligi – S.G. Dudetskayalar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tibbiyot terminologiyasining o'rganishga bo'lgan qiziqishning bir nechta sabablari mavjud. Ushbu sabablardan biri tibbiyotga oid tushunchalarning terminologiya sohasida ijtimoiy jihatdan muhimligi va ommabopligidir. Keyingisi esa – tibbiyot terminologik majmuining rivojlanishini o'rganish uning mohiyati, termino-tizimi, boshqa sohalar bilan aloqalarini aniqlashga yordam berishi. XIX asrning oxirlarida, ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan tushunchalarning belgilangan so'zlar bilan atalishi masalasi tilshunoslarning e'tiborini jalb etdi. Ushbu muammo terminologiya sohasi uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Tilning maydon modeli tilshunoslik sohasining umumiy muhim xususiyatlarga ega bo'lgan til birliklarini guruhlash usuli sifatida belgilangan bo'lib, u har qanday tizimli tarkib birlashuvi singari, ma'lum bir tuzilishga ega. Shuningdek, maydon munosabatlari bir to'plam doirasida til birliklarining guruhlanishi va tarkibida ma'nolari kesishgan yoki bir-biriga bog'langan terminlar xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Maydon tasnifi quyidagi differentsiatsiyalarni ifodalaydi: og'zaki nutqga xos ma'no ifodalaydigan; sintagmatik va paradigmatic; - semantik va birikma hosil qiluvchi. Lingvistik terminlar lug'atida semantik maydon tushunchasi quyidagicha izohlangan: "1) Tildagi voqelikning umumiyliyi yoki maydoni leksik birliklarning tematik jihatdan birlashgan majmui ko'rinishidagi muvofiqdigi. Vaqtning semantik maydoni, makonning semantik maydoni, semantik maydon, hissiy tajribalar va b.; 2) Tematik qatomi tashkil etadigan va ma'lum bir ma'no sohasini qamrab olgan so'zlar va iboralar majmui. Vaqtning semantik maydoni: yil, oy, hafta, kun, tun, soat va h.k.; davomiyligi va b.; uzoq vaqt oldin, yaqinda, tez orada va boshqalar" [2]. Semantik maydon zamonaviy tilshunoslikda umumiy mazmun ifodasi va konseptual jihatdan birlashgan, predmetlilik yoki funksional o'xshashlikni aks ettiruvchi lisoniy birliklar majmui sifatida ta'riflanadi. S.V. Grinyova-Grinevichning ta'kidlashicha, semantik maydon tilda mavjud leksik tizimni ifodalovchi insoniyat tajribasining bir bo'laki sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, u terminlar o'rtasidagi aloqalarning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalarini aniqlagan [3].

Tahlil va natijalar. Y.N. Karaulov tomonidan semantik maydonga xos quyidagi xususiyatlar keltirilgan: bir xil maydonga xos birliklar o'rtasida majburiy tizimli aloqalar mavjudligi; aniq tilning leksik sathidan ajralgan holda o'zining maydon yaxlitligini mustaqil tarzda ifodalashi; turli jahon tillarining tarixiy nuqtai nazaridan shakllanishi, betakror milliy o'ziga xos jihatlarining tashqi maydon bilan aloqalari kabi semantik maydonning ifodalanishini ta'minlaydi [4]. N.F. Alefirenko leksik-semantik maydonni umumiy ma'no doirasida birlashgan va ma'lum bir sohaga tegishli bo'lgan leksik birliklar iyerarxiyasini tashkil etgan tizim sifatida ifodalaydi [5]. Binobarin, so'zning semantik maydon bilan bog'liq muammolarini hal etish nomlari sanab o'tilgan masalalarni yoritishga imkon beradi. Keltirilgan izohdan ma'lumki, termin va maydon tushunchalarining ayrim ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lib, termin maydoni, ya'ni, maxsus leksemalar keng qo'llaniladigan doira nazarda tutiladi. Ma'lumki, grammatik-leksik maydonni – aniq qonuniyatlar o'rnatishga imkon beruvchi munosabatlari bilan bog'liq umumiy ma'nolarni ifodalashda va nomlashda qo'llaniladigan leksik va grammatik sath birliklari sifatida izohlash mumkin. O'zaro ta'sir etuvchi vositalar majmui grammatik-leksik maydonni tashkil etadi. A.V. Bondarkoning fikriga ko'ra, funksional-semantik maydon semantik kategoriyaga asoslanib, grammatik va muhim leksik birliklarni, ma'lum bir tilning turlicha tarkibga ega vositalari (leksik-sintaktik)ni guruhlash, ularning umumiy vazifasiga ko'ra o'zaro aloqada bo'lishiga asoslanib tarkibiy turlarga ajraladi [6].

Stomatologik terminologiyadagi tizimli munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash tarkibiy-tizimli yondashuv asosida amalga oshiriladi. Binobarin, tarkibiy-tizimli yondashuvni fan va amaliyotning turli sohalarida keng qo'llanilishi nazariy jihatdan qat'iy va sathlararo munosabatlarning shakllanmaganligi, har qanday murakkab tizimlarga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash qobiliyati kabi xususiyatlarga bog'liq. Ta'kidlash joizki, D.S. Lottening tadqiqotlarida maxsus terminologiyani o'rganishda tizimli-tarkibiy yondashuvdan foydalanish nazariy jihatdan asoslanib, shakllantirilgan [7]. Keyinchalik, bir qator tilshunoslar tomonidan terminologiyaning nazariy va amaliy

muammolariga yechim topish maqsadida ushbu masala yanada takomillashtirib, amalda tadbiq etilgan. Buning natijasida, deduksiya usuli yordamida stomatologiyaning beshta quyi tizimiga xos bo'lgan terminologik guruhlarini birlashtirib, to'rtta tematik guruhni tashkil etadi. Markaziy termin-doirasi quyidagi terminlarni o'z ichiga oladi: anatomik uskuna nomi, inson tana a'zo qismlarini davolashda qo'llanilishiga qaramasdan, stomatologiyada davolash vositasi hisoblanadi, masalan: - *spoon excavator / stomatologicheskiy ekskavator / stomatologik ekskavator* – ushbu asbobning vazifasi: “1. A spoon-shaped working yend for 'spooning' out dental caries from the cavity preparation; Tayyorlangan kovakdan dentin kariyesini chiqarib tashlash uchun qoshiqsimon uchli asbob; 2. Edges of working end are sharp; Ishchi uchining qirralari o'tkir; (ya'ni asbobning uchi)” - *Gingival margin trimmers / instrument dlya udaleniya emalevogo kraya / emal qismidagi kariyesni tozalashda qo'llaniladigan asbob* – ushbu asbobning turlari quyidagilardan iborat: - *Distal / markazdan uzoqda joylashgan kariyesni davolashda qo'llaniladigan vosita*; - *Mesial / o'rtacha kattalikga ega bo'lgan uskuna*.

Keyingi asbob “1. Used to remove unsupported enamel for refining the cavity preparation; Tayyorlangan kovakni tozalash maqsadida quvvatlanmaydigan emal sohasini olib tashlash uchun ishlatiladi; 2. Sharp beveled working ends; O'tkir qiyshiq ish uchlari (ya'ni asbobning uchi)” – maqsadlarida qo'llaniladi: - *Enamel chisel / doloto / iskana*; Birinchi termino-daira qatorini tashkil etuvchi terminlar bemor holati va kasalliklar nomlaridan iborat bo'lib, kasallikni o'rganish va davolash stomatologiya sohasida muhim sanaladi, masalan: - **Clinical examination findings:** tooth had a normal shaped crown and mesiodistally fractured temporary filling. It was mild tenderness to percussion. Periodontal probing and mobility were within physiological limits, with no evidence of swelling or a sinus tract. Klinik tekshiruv natijalari: tishning toji normal shaklda bo'lib, vaqtinchalik plomba meziodistal tarzda yorilib ketgan. Bu tishda perkussiyaga nisbatan yengil sezuvchanlik bor edi. Periodontal zondlash va harakatchanlik fiziologik chegaralar ichida bo'lib, shish yoki sinus yo'llarining belgilari yo'q edi. Ushbu belgilar natijasida bemorga quyidagi tashxis qo'yilgan: - **Diagnosis:** initiated endodontic treatment with symptomatic apical periodontitis. – Tashxis: simptomatik apikal periodontit bilan boshlangan endodontik davolash; - **Avulsion / avulsiya:** Separation of tooth from its socket due to trauma. Travma tufayli tishning cho'ntagidan ajralishi. Stomatologik kasalliklarni davolash operatsiya va turli amaliyotlar yordamida amalga oshirilganligi bois operatsiya va amaliyotlar nomlari ikkinchi termino-daira qatoridan joy olgan: - **Alveoloplasty / alveolyarnaya plastika / alveolar plastikasi:** Surgical procedure for recontouring supporting bone, sometimes in preparation for a prosthesis; Tayanch suyagini qayta konturlash bo'yicha jarrohlik muolajasi, ba'zida protezga tayyorgarlik; - **Biopsy / biopsiya:** Process of removing tissue for histologic evaluation; Gistologik tekshirish uchun to'qimalarni olish jarayoni.

Operatsiya va amaliyotlar turli asboblarda vositasida olib borilganligi sababli, tashqi tarkibiy doirani asbob va moslamalar nomlari shakllantirgan: - **Straight handpiece / pryamoy nakonechnik / tekis poynak:** Used in surgical procedures to remove bone (cannot use air turbine as the water is not sterile); Jarrohlik muolajalarida suyakni olib tashlash uchun ishlatiladi (suv steril bo'lmaganligi sababli havo turbinasidan foydalanib bo'lmaydi); - **Enamel hatchet / rezak emalya / tish qoplamasini kesadigan:** Used to remove unsupported enamel for refining the cavity preparation;

ADABIYOTLAR

1. Шелов С.Д. Термин. Терминологичность. Терминологические определения. – СПб.: Филол. фак-т СПбГУ, 2003. – С.265-266.

Tayyorlangan kovakni tozalash maqsadida quvvatlanmaydigan emal sohasini olib tashlash uchun ishlatiladi (ya'ni to'qimalari o'lgan emal sohasini); - **Disposable applicators / odnorazoviy applikator / bir martalik applikator:** Used to apply materials intra-orally, e.g. desensitising agents, bonding agents, cavity varnish; Materiallarni og'iz orqali qo'llash uchun ishlatiladi, masalan, desensibilizatsiya (sezuvchanlikni kamaytiruvchi) qiluvchi vositalar, biriktiruvchi moddalar, kovak qoplamalari; - **Dispensing wells / tochnoye dozirovaniye / to'g'ri miqdor:** Used to hold material to be dispensed (e.g. bonding agent). Taqsimlanuvchi materialni saqlash uchun ishlatiladi (masalan, biriktiruvchi vosita). Stomatologik terminlarni tahlil qilishda maydon kategoriyasidan foydalanish terminlar o'rtasidagi o'zaro bog'liq bo'lgan o'ziga xos munosabatlarni va shuningdek, sifat hamda miqdor jihatdan baho berishni to'liq ifoda etadi. Doira kategoriyasi lingvistik tahlilni qo'llash orqali terminlarni ma'nolariga asosan semantik komponentlarga bo'lishga imkon beradi. Termin-maydonni yaratish bir nechta bosqichni o'z ichiga oladi: - Birinchi bosqichda maydon nomi aniqlanadi; - Ikkinchi bosqichda leksik-semantik guruhlariga ajratiladi; - Termin-maydoni o'rnatiladi. Lingvistik-tematik tahlilning har bir bosqichida guruhlar leksik-semantik deb nomlanib, har biri mazmun va ifoda nuqtayi nazaridan umumiy til xususiyatlariga ega.

Mantiqiy-deduktiv va komponentlarni tahlil qilish usullari yordamida leksik-semantik guruhlarini aniqlash ikki darajada amalga oshiriladi, ya'ni, tushunchalar darajasi (mantiqiy bog'liq bo'lgan) va leksik ma'no darajasi (komponent tarkibiga bog'liq). Komponent tarkibi mavjud termin ma'nosi ma'lum bir leksik-grammatik toifaga xos bo'lgan kategorial belgilar doirasida birlashuvchi gipersemalardan iborat. Terminologiyada semantik doiraga muvofiq termin-maydonga oid sema odatda tematik deb yuritiladi. Giposema esa terminni leksik-semantik guruhga kiritishga imkon beradi. Zamonaviy tilshunoslikning yorqin tendensiyasi – bu olimlarning tilni ishora tizimi va unda sodir bo'layotgan holatlar hamda jarayonlar spektri sifatida tushunish orqali inson faoliyatining mavjud sohalarini o'rganishga intilishidir. Leksik sathga yondoshish semantik maydon nazariyasining asoschilari nemis olimlari Genrik Ibsen, Yost Trir, Leo Vaysgerber va Valter Porsig nomlari bilan bog'liq bo'lib, tilshunoslarning zamonaviy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

Ta'kidlash joizki, maydon tilga va madaniyatga xos bo'lgan tushunchalarni ifodalaganligi sababli, murakkab, ko'p qirrali tarkibdan tashkil topgan. G.R.Kadirovning fikriga ko'ra, “maydon” tushunchasi uni o'rganish bilan bog'liq barcha holatlar, shuningdek, tiplari, yondashuvlarda keng qo'llanilishi mumkin [8]. S.A.Moiseyevaning ta'kidlashicha, “paradigmatik, sintagmatik, assotsiativ, morfosemantik, funksional-semantik va boshqa turdagi o'xshash semantik vazifani bajaradigan maydonlarni ifodalovchi darajadagi til birliklari majmuini tadqiq etish kerak [9].

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni keltirish mumkinki, til vositalari lingvistik makonni tashkil etuvchi, semantik munosabatlarga aloqador so'z birlikmalarini birlashtiradigan turli sinergetik maydon tizimlarini aks ettiradi. Fanlararo nazariy sohalar va maydon modelidan foydalanish natijasida maydon tipologiyasining differensiyatsiyasiga, jumladan, lingvomadaniy, funksional-semantik, funksional-pragmatik, ornamental maydonlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Maydon yondashuvini turli semantik ma'no kasb etgan til birliklarini ifodalashda va ulardan foydalanish ko'lamini aniqlash maqsadida tahlil usuli sifatida qo'llash mumkin.

2. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов и понятий. Изд. 6-е, испр. и доп. – Назрань: Пилигрим, 2016. – С. 65.
3. Гринев-Гриневиц С. В. Введение в терминоведение. – М.: Московский лицей, 2008. – С.210.
4. Караулов, Ю. Н. Структура лексико-семантического поля // Филологические науки. – М.,1972. – № 1. – С. 57-68.
5. Алефиренко Н. Ф. Спорные проблемы семантики: монография. – Москва: Гнозис, 2005. – С.290.
6. Бондарко А. В. Функциональная грамматика. – Ленинград: Наука, 1984. – С. 21-22.
7. Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов. – Москва: Наука, 1982. – С.76.; Лотте Д.С. Краткие формы научно-технических терминов. – Москва: Наука, 1971. – С.39.
8. Кадырова Г. Р. Теоретические подходы к понятию «поля» в лингвистике // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – М.,2014. – № 12. – С. 237-241.
9. Моисеева С. А. Семантическое поле глаголов восприятия в западно-романских языках: монография. – Белгород: Изд-во БелГУ, 2005. – С. 8.